

**“SHAHRIXON- ASAKA” YO‘NALISHI HUDUDIDAGI TEMIR YO‘L
KESISHMASI BILAN BOG‘LANGAN KO‘CHADAGI TIRBANDLIKLARNI
BARTARF ETISH**

Stajyor-o‘qituvchi

M.S.Xakimov

Andijon mashinasozlik instituti

(tel:+99893-419-29-97)

Talaba

N.M.Sotiboldiyev

Andijon mashinasozlik insituti

(tel:+ 99890-169-08-95)

Annotatsiya: *Bugungi kundagi jadal sur‘atlar bilan oshib borayotgan urbanizatsiya aholining transportga bo‘lgan talabini yanada oshishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada kopgina rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning shaharlari tirbandlik muommosiga duch kelmoqda. Hozirda shaxsiy transport vositalaridan foydalanish aholi orasida tez ommalashishi bilan bir qatorda, avtoturargohlar yetishmasligi ham muhim masalalardan biridir. Shahar transport tizimi qanchalik darajada rivojlantirilsa ham, maqsadga muvoffiq mobillik tashkil etilmasa, transport vositalari harakatini tartibga solib bo‘lmaydi.*

Аннотация: *Сегодняшняя быстро растущая урбанизация приводит к еще большему увеличению спроса населения на транспорт. В результате города многих развитых и развивающихся стран сталкиваются с проблемой заторов на дорогах. В настоящее время использование личного автотранспорта стремительно становится популярным среди населения, а нехватка парковочных мест также является одной из важных проблем. Как бы ни была развита городская транспортная система, невозможно регулировать движение транспортных средств, если мобильность не организована по назначению.*

Annotation: *Today's rapidly increasing urbanization is causing the population's demand for transport to increase even more. As a result, cities in many developed and developing countries are facing the problem of traffic congestion. Currently, the use of private vehicles is rapidly becoming popular among the population, and the lack of parking spaces is also one of the important issues. No matter how much the city transport system is developed, it is impossible to regulate the movement of vehicles if the mobility is not organized according to the purpose.*

Kalit so‘zlar: *Transport, kuzatuv, atrof-muhit, piyodalar, svetoforlar, Chorraxalar.*

Ключевые слова: *Транспорт, наблюдение, окружающая среда, пешеходы, светофоры, перекрестки.*

Key words: *Transport, surveillance, environment, pedestrians, traffic lights, Intersections.*

So‘nggi yillarda yurtimizda avtomobil va transport kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish, transportni yo‘llarda xavfsiz harakatlanish tizimini takomillashtirish, xavfsiz harakatlanishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari va amalga oshirilayotgan islohotlar respublikaning geografik joylashuvini inobatga olgan holda transportni yo‘llarda xavfsiz harakatlanishini va atrof muhitni ifloslantirish sababini kamaytirishni ta‘minlashga yo‘naltirilgan tizimni ishlab chiqish va amalga oshirish, va ushbu yaratiladigan tizimni boshqarishning zamonaviy texnologiyalari va intellektual tizimlarini joriy etishda alohida ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda[1].

Asaka tumanida avtomobil tirbandligi yanada ortib borishi, ma‘lum bir hudularda haraktlanish ayniqsa kunning pik vaqtlarida qiyinlashishi, asosiy o‘quv va ijtimoiy-siyosiy maqsadida foydalaniladigan binolarning ketma-ket joylashuvi natijasida transport vositalari va piyodalar harakatlanadigan chorraxa va yo‘llar tizimini yanada takomillashtirish, chorraxalarda mavjud mobillik muammolarini hal etish, barcha chorradagi svetoforlarini boshqarish muammolariga ijobiy yechim topish yanada muhim hisoblanadi. Joriy vaqtda svetoforlarda belgilangan signal sekundlaridagi nosozliklar, transport tizimlarining tez rivojlanishi, vaqt tig‘izligi va atrof muhitni ifloslanishi kabi turli omillarni hisobga olgan holda transport oqimini maksimal darajada tartibga solish maqsadida chorraxalarning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish uchun samarali yechim kerak bo‘ladi. Chorraxalarda joriy vaqtda mavjud mobillik muammolarini tashkil etuvchi omillar statistik jihatdan o‘zaro ta‘sirlarni namoyon qilganligi sababli, ushbu qiyinchilkn bartaraf eta oladigan va hali ham amalda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yechim usullarini taklif qilish uchun ushbu omillarni aniqlash juda muhimdir. Haydovchi va piyoda uchun qulay sharoit yaratish, hozirda mavjud tizimlarning sifati standartlariga mos bo‘lishi va yo‘nalishlarda harakat jadvallariga rioya etish darajasini oshirish, transport vositasini boshqaruvchi xodimlari moddiy manfaatdorligini kuchaytirish, ma‘muriy-boshqaruv xarajatlarini kamaytirish maqsadida tegishli hukumumat qarorlari asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-yanvardagi 48-sonli O‘zbekiston Respublikasida “Aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori[2].

Prezidentimiz tomonidan 2017-yil 2-dekabrda PQ-3422 sonli qarorida “2018-2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori; qabul qilingan[3].





Bugungi kunda yurtimizda transport harakatini samarali tashkil etish, jamoat transporti jozibadorligini oshirish, shahar va shahar atrofi yo‘l infratuzilmasini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu o‘z o‘rnida harakat xavfsizligi va harakatni tashkil etishda muhim omillar hisoblanadi. Shuningdek, ushbu bobda Asakatumani misolida harakat xavfsizligini oshirish va harakatni tashkil etishda markaziy chorraxalardan birining o‘tkazuvchanlik qobiliyati, undagi transport muammolari atroficha bayon qilinadi[4].

“Asaka-Shahrixon” va “Sanoat- Asaka- Shahrixon” ko‘chalaridagi chorraxalarining o‘tkazuvchanligini tahlil qilishda kuzatuvlardan foydalanildi. Chorraxaga kiruvchi va chiquvchi barcha turdagi transport vositalarining harakat yo‘nalishi kuzatuv ishlari orqali tadqiqod o‘tkazildi. Tadqiqod haftaning ish kuni va dam olish kunlarining ertalabki soat 8-00

dan 9-00, 12-00 dan 13-00 gacha hamda 16-00 dan 18-00 gacha vaqt oralig'ida amalga oshirildi. Kuzatuv bir kunda jami 4 soat davomida amalga oshirildi. Va avtotransport oqimi eng ko'p harakatlanadigan kunning tig'iz vaqti soat 8-00 dan 9-00 gacha bo'lgan vaqt tadqiqot sifatida o'rganildi. Tadqiqod natijalarga ko'ra chorrahalar orasidagi ziddiyatli vaziyatlar aniqlandi. Tadqiqod orqali o'rganilgan natijalar shuni ko'rsatdiki, kunning birinchi yarmida, ya'ni 08:00 dan 9:00 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida bir soatda 3041 ta avtotransport vositalari chorrahalar orasida harakatlandi. (1- va 2- jadvallar) [5].




1-jadval

“Asaka-Shahrixon” chorrahalarini orqali svetaforning bir soatda harakatlanuvchi transportlar miqdorini tasvirlaydi.

<u>Ko'cha nomi</u>	<u>Jumladan yo'nalishlar bo'yicha</u>					
	<u>Chorrahaga kirish</u>	<u>jami</u>				
<u>Asaka</u>	A	2472	1523	688	188	73
<u>Asaka</u>	B	2528	1543	214	715	65
<u>Shahrixon</u>	C	1703	36	726	858	83
<u>Shahrixon</u>	D	561	53	234	256	18

2-jadval

“Sanoat- Asaka- Shahrixon” chorrahalarini orqali harakatlanuvchi transportlar miqdorini tasvirlaydi.

<u>Ko'cha nomi</u>	<u>Jumladan yo'nalishlar bo'yicha</u>				
	<u>Chorrahaga kirish</u>	<u>jami</u>			
<u>Sanoat</u>	A	771	468	210	93
<u>Asaka</u>	B	256	256		
<u>Shahrixon</u>	C	342		342	

Xulosa. Yuqoridagi jadvallarda “Asaka-Shahrixon” va “Sanoat- Asaka- Shahrixon” ko'chalari oralig'ida joylashgan chorrahalar orqali harakatlanuvchi transport vositalarining to'g'riga, o'nga, chapga va qayrilib oligandagi 1 soatlik miqdori keltirilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu hududda joylashgan ijtimoiy-iqtisodiy obyektlarning ketma-ket joylashganligi hisobiga, transport vosilari harakat oqimi va chorralardagi svetaforlarning qizil chirog'i yonishidan hosli bo'layotgan tirbandlik uzunligi o'rtacha 90-130 metr atrofida bo'lishi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida” Qarori <https://lex.uz/docs/-6386205#-6387283>

[2] Насиров Ильхам Закирович. (2022). МУСТАХИЛ ИШЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ШАКЛЛАРИ. Конференц-зона , 327–332. Получено с <http://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/867>

[3] Саримсаков А.М., Хакимов М. ПРОЕКТИРОВАНИЕ СИСТЕМ ПОЖАРОТУШЕНИЯ, СКОРОСТНОГО ДВИЖЕНИЯ АВТОМОБИЛЕЙ СКОРОЙ ПОМОЩИ НА ПЕРЕКРЕСТКАХ // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2022. 4(97). RL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/13416> (дата обращения: 19.12.2022)

[4] Шодмонов С. А., Ортиков С. С., Abdiraxmonov R.A International jurnal for innovative Enjineering and Management Research Хиндистон Hyderabad 2021 THE RESULTS OF LOBORATORY STUDIES CONDUCTED TO DEVELOP THE TECHNOLOGIY OF RESTORATION OF SHAFTS March-2021, Volume 10, Issue 03, Pages: 402-404 <https://ijiemr.org/downloads/Volume-10/ISSUE-3> 3 0.33 ball

[5] Hakimov M.S. Recovery Of Fines From Drivers Of Foreign Vehicles. (2023). Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3589-359 <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446>